

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



2010 yil "18" 08



2010 yil "19" 08

Ro'yxatga olindi: BD-5120700

2010 yil "19" 08

MUMTOZ ADABIYOTSHUNOSLIK

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000	– Gumanitar
Ta'lim sohasi:	120000	– Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	5120700	– Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (sharq tillari)

Toshkent – 2020

[Faint handwritten marks]

[Faint handwritten marks]

[Handwritten signature]

	2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2016.
	3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O'zbekiston”, 2017. - 48 b.
	4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. - 488 b.
	5. Alisher Navoiy. Hikmatlar: monografiya, 2006.
	6. Muhammad Yusuf.O'zingdan qo'ymasin, xalqim. 2000.
	7. Mirzaev T. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatsiyasi, 2008.
	8. Karimov Naim. XX asr: Adabiyoti manzaralari, 2008.
	9. Qosimov B. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti, 2004.
	Axborot manbalari
	1. www.Zioynet.com
	2. www.adabiyot.com www.almeshkat.com
	3. www.drmosad.com
	4. www.el-eman.com
7.	Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil “19.08” dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil “19.08” dagi 482 - sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: M. Eshmuhamedova –TDSHU, Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.
9.	Taqrizchilar: Rustamiy S. – O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi dotsenti, filologiya fanlari doktori Jo'rayev J. – O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori

Fan/modul kodi UMA222		O'quv yili 2020-2021	Semestr 2	ECTS -Kreditlar 2	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mumtoz adabiyotshunoslik		30	30	60
2.	I. Fanning mazmuni “Mumtoz adabiyotshunoslik” bo'lg'usi mumtoz filologiya mutaxassislariga o'zbek adabiyotining eng eski davrlaridan boshlab XX asr boshlariga qadar bo'lgan davri, bu davr oralig'ida yashab ijod etgan adib va yozuvchilarning faoliyati, ular yaratgan boy ijodiy meros to'g'risida ma'lumot berishni ko'zda tutadi. Ushbu o'quv dasturida fanning bosh yo'nalishlari, o'qitishdagi yo'lyo'rug'lar qamrab olingan. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu: X-XI asrlarda turkiy adabiyot Mumtoz adabiyotshunosli faniga kirish, fanning maqsadi va vazifalari. Abu Ali ibn Sinoning ijodiy faoliyati. Ibn Sinoning asarlari bilan tanishish va ularning adabiy qiymatini aniqlash 2- mavzu. XII asrda turkiy adabiyot Ahmad Yassaviy va “Devoni Hikmat”. Jaloliddin Rumiyning adabiyotshunoslikdagi xizmatlari. “Ma'naviy masnaviy” asari haqida ma'lumot. 3-mavzu. Ilk turkiy asarlarda adabiyotshunoslikka oid qarashlar Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'oti-t-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq” asarlarida adabiyotshunoslikka oid malumotlar. 4- mavzu. Navoiyning o'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga ko'rsatgan xizmatlari Alisher Navoiyning adabiyotshunoslikka qo'shgan hissasi. Adabiyotshunoslikka oid asarlari. “Munshaot” asari haqida. Navoiy ijodida pandnoma ruhida asarlarning o'rni va ularning ahamiyati.				

5- mavzu. Zahiriddin Muhammad Bobur Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi. Boburning aruzshunoslikka qo'shgan xissasi. Boburning "Risolai aruz" ("Muxtasar") asari. 6- mavzu: Turkiy adabiyotda aruz Aruz vazni haqida. Turkiy adabiyotga aruz vaznining kirib kelishi. Aruz bo'yicha yaratilgan tadqiqotlar. 7- mavzu: Zamonaviy mumtoz adabiyotshunoslik Zamonaviy mumtoz adabiyotshunoslik haqida ma'lumot. Zamonaviy mumtoz adabiyotshunoslikning zabardast vakillari. Aziz Qayumov, Alibek Rustamov va ularning fanga qo'shgan xissalari. III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. X-XI asrlarda turkiy adabiyot. 2. XII asrda turkiy adabiyot. 3. Navoiyning o'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga ko'rsatgan xizmatlari. 4. Muhokamatu-l-lug'atayn va Mezonu-l-avzon. Abdurrahmon Jomiy. 5. Zahiriddin Muhammad Bobur. 6. Zamonaviy mumtoz adabiyotshunoslik. 7. Aziz Qayumov ilmiy ijodi. 8. O'zFA Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi (ziyosat). Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq. IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. O'zbek adabiyotshunosligining yuzaga kelishi. Yozma obidalarda adabiyot va so'z san'ati haqidagi fikrlar. 2. Alisher Navoiyning adabiyotshunoslikka oid asarlari va ularning tahlili. 3. Zahiriddin Muhammad Boburning adabiyotshunoslik tarixidagi xizmatlari. 4. Atoullloh Husayniyning "Badoyi'u s sanoyi'" asarini o'qib o'rganish. 5. O'zbek adabiyotshunosligi tarixida qo'llangan adabiyotshunoslikka oid atamalar tizimi. 6. Navoiyshunoslik 7. Navoiyning adabiyotshunoslikka oid asarlari 8. Jomiy – Navoiy ustozlari

9. Boburning sharaflari o'tmishi va ijodiy faoliyati 10. Zamonaviy adabiyotshunos olimlar Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni tadqiqot qilish tavsiya etiladi.
3. V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: – "Mumtoz adabiyotshunoslik" fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr: - mumtoz asarlarni o'rganish bo'yicha sharqshunoslikda bor bo'lgan turli ko'zqarashlar, ilmiy tortishuvlarni; - mumtoz matnlar tili va badiiy xususiyatlarining til va adabiyot tarixida tutgan o'rni; - yozma yodgorliklarni o'rganishning nazariy masalalarini <i>bilishi kerak</i>; - yozma yodgorliklar, klassik asarlar bo'yicha filologik tadqiqotlar olib borish <i>ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak</i>; - klassik matnlarni o'qib, ulardan o'z sohasi uchun kerakli material to'play olishi; - klassik matnlardagi, adabiy asarlardagi ilg'or g'oyalarni, kishilik yuksalishiga xizmat qiluvchi fikrlarni uqib, ularni to'g'ri talqin qila olish, ular bo'yicha ilmiy tadqiqot yarata olish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>.
4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-studylar; • seminarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5. VII. Kreditlarni olish uchun talabalar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6. Asosiy adabiyotlar 1. R. Vohidov, Eshonqulov. O'zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent, 2006. 2. Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. O'quv qo'llanma. –T., 2008. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017.